

BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashida O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlari taqdim etildi

2020-yilning 9-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'limi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakili Ulug'bek Lapasov "Amnesty International" ("AI") va "International Service for Human Rights" xalqaro nodavlat tashkilotlarining BMTning Inson huquqlari bo'yicha 2021-2023-yillarda inson huquqlari sohasidagi ustuvor yo'nalishlari kengashiga nomzod mamlakatlar bilan munozarasiga bag'ishlangan qo'shma yig'ilishida ishtirok etdi.

Hukumatlar, turli nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatlarining 150 ga yaqin ishtirokchilarini birlashtirgan mazkur tadbir Niderlandiya va Marshal orollari hukumatlari tomonidan ham tashkil etildi.

Ma'lumki, O'zbekiston 2021 — 2023-yillarda BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga a'zolikka o'z nomzodini Osiyo-Tinch okeani mintaqasidan ko'rsatdi.

Interaktiv muloqot davomida diplomatik vakolatxona rahbari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, BMTning turli institutlari bilan samarali hamkorlikning hozirgi darajasi, shu jumladan inson huquqlari masalalari to'g'risida to'liq ma'lumot berdi. BMT Bosh assambleyasining 60/251 sonli qaroriga muvofiq Kengashga saylangan taqdirda qabul qilingan mamlakatimizning ixtiyoriy majburiyatlari batafsil bayon etilgan.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT homiyligida pandemiya davrida mamlakatlarning Xalqaro ixtiyoriy majburiyatlar kodeksini qabul qilish tashabbusiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadbirda o'zbek tomonining ishtiroki ma'ruzalarning mazmuni va o'ziga xosligi tashkilotchilar tomonidan yuqori baholandi.

Manba